

## NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA TA'LIM OLAYOTGAN TALABALARDA INGLIZ TILIDA YOZISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

*Mamataliyeva Arofat Rahmonali qizi*

*Toshkent amaliy fanlar universiteti tillar kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada ingliz tili darslarida yozish ko'nikmalarini rivojlanirish ko'rib chiqiladi. Yozuv faqat nutq faoliyatining boshqa turlarini o'rgatish vositasi bo'lib, talabalarga materialini yaxshiroq o'zlashtirishga imkon beradi, shuningdek, talabalarning yozma nutq qobiliyatlarini shakllantirishni nazorat qilish vositasidir. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda yozma muloqot shakli muhim kommunikativ funktsiyani bajaradi, shuningdek chet tilini o'qitish samaradorligini oshiradi.

**Kalit so'zlar:** kompetentsiya, talabalar, qobiliyat, yozish, ingliz tili, qobiliyat, samaradorlik.

Og'zaki va yozma nutq vositasi sifatida xorijiy tillarni amaliy o'zlashtirish zamonaviy sharoitlarda muloqotning maqsadi hisoblanadi. Bunga faqat chet tillarini o'rgatishda kommunikativ yondashuv ustunlik qilgan holda erishish mumkin. Motivatsiyaning roli doimiy ravishda oshib bormoqda, chunki chet tillarini bilish nafaqat muvaffaqiyatli ishga joylashish va kasbiy o'sishga yordam beradi, balki sizga o'z mamlakatingizdan tashqarida o'qish imkoniyatini beradi.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar universitetning zamonaviy chet tili o'qituvchilari oldiga bir qator muhim muammolarni qo'ymoqda. Ilgari na ilmiy, na pedagogik muhitda katta ahamiyatga ega bo'limgani ular orasida alohida o'rinn tutmaydi. Ko'p yillar davomida chet tilidagi yozuv akademik vazifalar uchun yordamchi vosita sifatida qaraldi. Yozma og'zaki nutq ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, grammatik xatolarni aniqlash va matnni tushunish uchun texnika sifatida qabul qilinardi. Biroq, bugungi kunda vaziyat tubdan o'zgardi va biz yozish mahoratiga talab katta bo'lganiga duch keldik. Axborot manbalaridan foydalanish, elektron aloqa vositalari orqali chet tilidagi professional yozma nutq har qanday ta'lif muassasasi faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Internet orqali chet tilida yozma muloqot O'zbekiston oliy ta'lif muassasalari xodimlari va talabalari uchun zaruriyatga aylandi.

Yozish qobiliyatları bugungi dunyoda juda yuqori kasbiy ahamiyatga ega bo'ldi. Axborot almashinuvi hajmi va sur'atlarining jadal o'sishi, xalqaro professional aloqalarning asosiy vositasiga aylangan kompyuter aloqasining jadal rivojlanishi ustuvorliklarning o'zgarishiga yordam berdi, kasbiy faoliyat sohasida yozma

muloqotni bиринчи о’ринга оlib chiqdi. Shu munosabat bilan xorijiy tillarni yozish sohasidagi ko’nikmalar bugungi kunda kasbiy ahamiyatga ega bo’lgan maqomini oldi.

Avvalombor yozish nima uchun muhimligini belgilab olish lozim. Tadqiqotlarda ko’rsatilishicha yozish ko’nikmasi quyidagi holatlar uchun juda muhim hisoblanadi:

- kommunikativ ehtiyojlar tufayli (emaillar, rasmiy xatlar, tabrik kartalari, formulyarlar, uy vazifalarini yozish kabi);
- darsda kelib chiqadigan ehtiyojlar tufayli (uy vazifalari, testlar, grammatika va so’z boyligi ustida ishslash uchun topshiriqlar, qaydlar qilish uchun);
- o’rganishga oid psixologik tadqiqotlar tufayli (ko’proq qabul kanallari orqali o’rganish va bu orqali eslab qolishni rivojlantirish kabi);

Yozishda nimalarga e’tibor berish kerak [2]:

- yozishda leksika, sintaksis va rasmiyatçilik og’zaki nutqqa qaraganda boshqacha bo’ladi;
- tasvirlash imkoniyatlari cheklangan bo’ladi;
- qayta so’rash imkoniyatimavjud emas;
- gapirish ko’nikmasiga ega bo’lish yozish ko’nikmasini ham egallaganlikni ko’rsatmaydi;
- yozish ko’nikmasi rejalshtirish bilan uzviy bog’liq;
- yozish xatolarni to’g’rilash va qayta ishslash uchun kerak;
- yozish ko’nikmasini shakllantirish orfografik, so’z boyligi, pragmatika (murojaat) kabi masalalarda uchraydigan muammolarni hal qilishda yordam beradi;
- yozish sekin, avtomatlashmagan hisoblanadi.

Yozish ko’nikmasi haqida ko’p bahslar yuritilishiga qaramay, ko’p kitoblarda uni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Til o’rgnishga moljallangan darsliklarda asosan eshitib tushunish hamda gapirish konikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlarga juda katta e’tibor, o’rin ajratiladi asosan nofilologik ta’lim muassasalari talabalari uchun [1].

O’tgan asrning 90-yillariga qadar chet tili darslarida yozish ko’nikmasiga bolgan e’tibor juda sust bo’lib, rasmiy xatlar, formulyarlar va hakozolarni yozish tilda oz o’rniga ega emas edi. Ammo internetning rivojlanishi bilan yozish ko’nikmasini rivojlanishiga turtki bola boshladi.

Yangi davr tadqiqotlarda aks etayotgan neyropsixologik izlanishlar barcha til konikmalarini (yozish, gapirish, eshitib tushunish, o’qish) uzviy bogliq ekanligini ta’kidlaydi. Chet tili darslarida yozish ko’nikmasini rivojlantirish nofilologik ta’lim muassasalari talabalari uchun ikki bosqichdan iborat deb ko’rsatiladi: 1-bosqich mashqlarni taqsimlash, tayyorlash, boshqarish, boshqa konikmalar (eshitib tushunish, o’qib tushunish, gapirish, grammatika, so’z boyligi, talaffuz)ni baholash. Ikkinci bosqich esa aynan faqat yozuv ko’nikmasini shakllantirish bosqichi hisoblanadi [1].

Yozish ko'nikmasini shakllantirish uchun bir necha mashqlar tipologiyasini keltirish mumkin. Unga oid eng yaxshi ma'lumotlarni E.V. Musnitskaya va N.I. Gezning "The development of written speech skills of students of non-language institutes of higher education (in non-language specialties)" nomli asarida o'qish mumkin [4]. Unga ko'ra:

Tayyorlovchi mashqlar – bunday mashqlar aynan yozish ko'nikmasi uchun maxsus moljallanmagan bolib, kelgusida yozish ko'nikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan: So'z boyligini ustida ishlash, uni kengaytirish, mustahkamlash, mavjud bilimlarni faollashtirish, iboralarni mustahkamlash, to'g'ri yozish mashqlarini amalga oshirish kabi. Bunday mashqlar o'yin sifatida ham amalga oshirilishi mumkin. Nofilologik ta'lim muassasalari talabalar uchun asosan so'z zanjiri o'yini mashhur bolib, ko'plab chet tili o'qituvchilari undan unumli foydalanib kelishadi. Bunday o'yinlarda ham plenumda, ham guruhlarda o'tkazish mumkin. Musobaqa tarzida tashkillash ham juda yaxshi samara beradi. O'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi.

"Matnni yakunlash" mashqlar – bunday mashqlar asosan yozish ko'nikmasini shakllantirishda uchrashi mumkin bo'lgan ma'lum muammolarga qaratilgan bolib, unda talabalar o'zlari matn ishlab chiqarmasdan, mavjud matn bilan ishlab, uni variantlarga ajratib, o'qib tushunish va yozish ko'nikmasining farqli va o'xshash tomonlarini o'zlashtirishadi. Bunday mashqlarga gaplarni konstruktsiyalash, bog'lovchilarni qo'yish, bo'shliqlarni to'ldirish, parallel matn yaratish kabilarni misol qilib keltirish mumkin. E.A. Maslyko va P.K. Babinskaya "Handbook of a foreign language teacher" nomli kitobda quyidagi mashq keltiriladi:

- a) Tavsifni tuzadi va ba'zi lug'atlarni taqdim etadi. Bu qism bir vaqtning o'zida matn ishlab chiqarishning erkin shakllari uchun namunadir va talabalar matnni yozishdan oldin asosiy fikrlarni to'plashlari mumkin;
- b) Talabalar dunyosi bilan bog'liq bo'lgan erkinroq, samaraliroq topshiriq. Siz ushbu vazifani ham o'zgartirishingiz mumkin: shaxs (hammagaga ma'lum bo'lishi kerak);
- c) misoldida ularning ismini ko'rsatmasdan tasvirlangan. Talabalar bu kim ekanligini taxmin qilishadi.

Rasm № 1. Mashq na'munasi: Strukturalashga xizmat qiluvchi mashqlar - bunday mashqlarda asosan talabaning mehnati talab etiladi. Mashq natijasida matn yuzaga keladi, bu esa og'zaki va yozma nutqni rivojlantiradi. Bunday mashqlarga dialoglarni matnga yoki qisqa xabarga aylantirish, matnlarni toldirish, matnga xulosa yozish, rasmlarga oid hikoya tuzish, matn shablonlarini yangi mazmun bilan boyitish kabilar misol qilib keltirilishi mumkin.

Masalan quyidagicha rasmlar yordamida hikoya tuzib chiqish topshirig'ini berish mumkin:

Rasm № 2. Rasmlardan foydalanib hikoya tuzish.

Bu topshiriqlar nofilologik ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan.

Kreativ va erkin yozish uchun mashqlar - bunday mashq turlari matn na'munasisiz erkin matn yaratishni talab etadi. Buni shaxsiy yozish sifatida ham tushunish mumkin. Matn yaratuvchisi oz matnida o'zining fikrlarini, xissiyotlarini aks ettiradi.

Kreativ yozish deganda ijodiy yozish tushunilib, u kopincha "oddatiy yozish" ga qarshi qo'yiladi. Bunday mashq turlariga assotsiogramm, klaster, audio, vizual yoki verbal turki yordamida gipoteza yaratish kabilar kiradi. Kast kooperativ yozish haqida fikr bildirib, bir insonning emas balki bir jamoa ishtirokchilarining fikri mahsuli bolishi ham mumkinligini aytib o'tadi [3]. Bunday yozish shakli talabalarga motivatsiya berishi, kuchsiz o'quvchilarni dadil qilishi, yozishdan qo'rqishni yengishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Masalan bir necha talabalardan tashkil topgan jamoaga bir necha qiziqarli rasmlar beriladi. Ularni gazeta, jurnal yoki komikslardan olish mumkin. Rasmlar aralashtirilib, talabalarga tarqatiladi. Har bir talabai to'rtadan rasm oladi. Ularni yordamida hikoya tuzishga harakat qiladi.

Haqqoniy kommunikativ jarayonlarga bogliq bolgan mashqlar - bunday mashqlar hayotimizda uchraydigan real jarayonlarda yo'naltirilgan mashqlar bolib, tabrik kartalari, xatlar, bayonnomalar, formulyarlar va shunga o'xshash narsalar bo'lishi mumkin. Yozishning eng asosiy komponentlari adresat, yozish usuli va adresant kabilar hisoblanadi. Yozilayotgan matn yoki xatning kim uchun ekanligi juda muhimdir. Bunday mashqlarga tugilgan kun yoki bayramlar uchun kartochkalar tayyorlash, grafik yoki sxemalarni verballashtirish kabilarni misol qilib keltirish mumkin [3]

Yuqorida keltirilgan mashq turlarini chet tili darslariga joriy qilinishi nofilologik ta'lim muassasalari talabalarida yozma nutq ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sir emaski, bugungi kunda yoshlar yozish bilan kam shug'ullanishmoqda, chunki ularning qo'llarida tayyor matnlar va bir zumda olsa bo'ladigan javoblar bilan ta'minlaydigan, internetga ulangan smartfonlar va boshqa elektron qurilmalar mavjud. Ular o'z qimmatli vaqtlarini yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga emas, balki o'zgalar qilgan (yozgan) ishlarni qidirishga sarf-lashmoqda. Shunisi ham ayonki, yozish ko'nikmalari yaxshi shakllangan o'quvchilar o'z mustaqil fikr-larini bildirish va ko'zlagan maqsadlariga erishishda boshqalarga qaraganda muvaffaqiyatliroq bo'lishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tilining dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni va nufuzi ortib borar ekan, uni bizning vatanimizda ham zamon talabida o'rganilishini yo'lga qo'yish kerak. Bunda ingliz tilini o'rganishda asosiy o'rinnegallaydigan to'rt malakaning har biri-ni to'laqonli o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu malakalar tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish (TGO'Yo)lardir

va tilni samarali o'zlashtirish ularning barchasini rivojlantirish talab qilinadi. Til ko'nikmalarini rivojlantirish orqali xorijiy tillarni o'rgatish jarayonini bir tizimga solib loyihalashtirish va rejalashtirish, buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlashni taqozo etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Bashmakova I.S. On the formation of professional communication skills in a foreign language among students of non-linguistic universities. // Bulletin of the Moscow State University. - M., 2021. Issue 477.
- [2] Musnitskaya E.V., Gez N.I. The development of written speech skills of students of non-language institutes of higher education (in non-language specialties). - M: LUCH, 2021.
- [3] Maslyko E.A., Babinskaya P.K. Handbook of a foreign language teacher. Reference Manual. - M.: MIR, 2020.
- [4] Ботирбекова, Г. А., & Иргашева, У. Р. (2020). Роль самостоятельной деятельности студента в процессе обучения. *Наука и образование сегодня*, (1 (48)), 34-35.
- [5] Ботирбекова, Г. А. (2019). Таалабаларнинг оғзаки нутқини ўстириш учун машқлар билан ишлаш. *Молодой ученый*, (47), 476-477.
- [6] Ботирбекова, Г. А. (2019). Which method is the best in teaching EFL?. *Молодой ученый*, (18), 25-27.
- [7] Ботирбекова, Г. А., & Ёкубов, И. К. (2018). Роль компьютера в процессе обучения иностранному языку. *Наука и образование сегодня*, (11 (34)), 41-42.
- [8] Botirbekova, G. A. (2022). THE SPECIFIC REQUIREMENTS OF THE ELECTRONIC TEXTBOOK–AN IMPORTANT INNOVATIVE TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 871-876.
- [9] Botirbekova, G. A. (2021). ELEKTRON DARSLIKALAR INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TURI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 798-802.